

**QISHLOQ XO‘JALIGINI “YASHIL IQTISODIYOT” ASOSIDA
BARQAROR RIVOJLANTIRISH**

*Usmonov Murodbek Dusmurot o‘g‘li,
SamISI, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi asistent-stajyori
Saparova Nigina Jasur qizi,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
niginasaparova3@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qishloq xo‘jaligini “yashil iqtisodiyot” asosida rivojlantirish muammolari, “organik qishloq xo‘jaligi” usullari, organik qishloq xo‘jaligining afzalliklari haqida to‘liq ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: “Organik qishloq xo‘jaligi”, chiqindilarni qisqartirish, chiqindilardan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligida suv iste‘molini qisqartirish, o‘rmonlashtirish, organik o‘g‘itlar.

Abstract. This article provides comprehensive information on the problems of developing agriculture based on the "green economy", methods of "organic agriculture", and the advantages of organic agriculture.

Keywords: "Organic agriculture", waste reduction, waste efficiency improvement, water consumption reduction in agriculture, afforestation, organic fertilizers.

Абстрактный. В данной статье представлена полная информация о проблемах развития сельского хозяйства на основе «зеленой экономики», методах «органического сельского хозяйства» и преимуществах органического сельского хозяйства.

Ключевые слова: «Органическое сельское хозяйство», сокращение отходов, повышение эффективности использования отходов, снижение водопотребления в сельском хозяйстве, лесонасаждения, органические удобрения.

Qishloq xo‘jaligini “yashil iqtisodiyot” asosida rivojlantirish muammolari

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi aholi ish bilan band bo‘ladigan asosiy soha va kambag‘allar uchun yagona daromad manbai hisoblanadi. "Yashil" qishloq xo‘jaligi jahonda kambag‘allik darajasini pasaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Qishloq xo‘jaligining "yashil" usullarini qo‘llash ekologik degradatsiyalashuv va kambag‘allik muammolarini birgalikda hal etishga yordam beradi. Yer yuzida 2,6 mlrd. kishi bevosita qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq hayot kechiradi, ularning aksariyat qismi qishloq joylarda kichik fermalarda kuniga 1 dollardan kam daromad evaziga mehnat qiladi.

Qishloq xo'jaligida yerdan turli usullar yordamida foydalanish tabiiy kapitalning tugab borishiga, global miqyosda issiqxona gazlarini chiqarish va atrof muhitni ifloslantirishga olib kelmoqda. Yerdan foydalanishga bo'lgan talabning o'sib borishi bio xilma-xillik va o'rmonlarning yo'qolib ketishiga zamin yaratmoqda. Qishloq xo'jaligiga ta'sir etuvchi tashqi omillarning iqtisodiy qiymati har yili milliardlab dollarni tashkil etmoqda va u o'sib borish tendentsiyasiga ega.

2."Organik qishloq xo'jaligi" tushunchasi, usullari

Organik qishloq xo'jaligi deyilganda, atrof muhitni saqlab qolish, rivojlantirish va tabiiy kapitalni jamg'arishga ko'maklashuvchi agrar ishlab chiqarishni boshqarishning yaxlit tizimi nazarda tutiladi. Ushbu tizim avvalo, har bir mintaqaning o'ziga xos shart-sharoitlarini hisobga olgan holda tashqi resurslardan emas, balki mintaqacha uchun moslashtirilgan boshqaruv mexanizmlaridan foydalanishni taqozo etadi.

Chiqindilarni qisqartirish va ulardan foydalanish samaradorlinini oshirish.

Chiqindilarni qisqartirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligini "yashillashtirish"ning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tarmoqda yetishtirilayotgan hosilning zararkunandalar va oziq-ovqatlarni saqlash, taqsimlash, sotish bilan bog'liq holda nobud bo'lish darajasi aholi uchun zarur ishlab chiqarilayotgan ozuqa kaloriyasining deyarli 50 foizini tashkil etadi. Hozirgi vaqtda barcha turdagi chiqindilarni qayta ishlash faqat bir nechta mamlakatlar da an'anaviy amaliyotga aylanib bormoqda, ammo undan foydalanish zarurati muhim bo'lib, iqtisodiy-ijtimoiy, ekologik va shu bilan birga energetik ahamiyatga ega. Chiqindi poligonlarida chiqindilarning yer ostidagi kimyoviy parchalanish natijasida atrof-muhitga karbonad angidrid va metan gazini chiqaradi, bu esa atmosferadagi issiqlikni ushlab, sayyoramizga tahdid soladigan issiqxona effektini yaratadi.

Qishloq xo'jaligida suv iste'molini qisqartirish. Suv va energiyani ko'p iste'mol qiladigan an'anaviy qishloq xo'jaligining muqobil varianti bilimlar, ilmiy kashfiyotlar, eski va zamonaviy ilmiy usullarni uyg'unlikda qo'llashga asoslangan ekologik qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Hozirda suvni tejamkorlik bilan sarflash nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda dolzarb masalaga aylangan. Chunki suv iste'moli yildan-yilga ortib bormoqda, suv zahiralari esa cheksiz emas. Bularning barchasi dunyoning aksariyat mamlakatlarida suv resurslarini boshqarishga eng yangi va yuqori samara beradigan texnologiyalarni jalb etish loyihalariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

O'rmonlashtirish. O'rmonlar inson va butun biosfera uchun muhim ahamiyatga ega. O'rmon tuproqdagi namlikni saqlab, suv muvozanatini barqarorlashtiradi. Nam yerlar o'simliklar va hayvonlarning o'sishiga yordam beradi. O'rmon zonalaridagi yer osti suvlari daryo va ko'llarni oziqlantiradi. Shuningdek, u hayvonlar va qushlar, dorivor o'simliklar va mevalar uchun boshpana, yashash joyidir. Bu qishloq xo'jaligi

ekin maydonlarini muhofaza qilishda ham muhim o'rin tutadi. O'rmon yerlarida tuproq, suv va shamol eroziyasi kuzatilmaydi. O'rmonsiz yerlarning tuprog'i esa qurib, cho'lga aylanadi. Daraxtlar qorni o'zida saqlash uchun ekiladi. O'rmon havoni tozalash xususiyatiga ham ega. O'rmonda sayohat qilishda eng xavfli narsa bu yong'in. Yong'inlarning aksariyati odamlarning ehtiyotsizligi tufayli sodir bo'ladi. Ignabargli o'rmon yong'inlarini o'chirish ayniqsa qiyin. O'rmonning foydasi va uni muhofaza qilishda birinchi navbatda inson salomatligi uchun foydalidir. Daraxtlar orasidan dam olish uylari, dam olish maskanlari quriladi. U yerdagi havo toza va shifobaxsh.

3. “Organik qishloq xo’jaligi”ning afzalliklari

Organik mahsulotlar ishlab chiqarishda avvalo iqlim, tuproq, relyef sharoiti hamda suv ta'minoti singari omillar inobatga olinadi. Ekologik sharoitlarga bog'liq ravishda toza mahsulot yetishtirish sug'oriladigan, lalmi, sizot suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan, sho'rlangan, eroziyaga moyil yerlarda amalga oshiriladi. Organik mahsulot ishlab chiqarishda tuproq sog'lom, uning tabiiy unumdorligi yuqori (ball bonniteti 60 dan ko'p) bo'lishi kerak, tuproq zichligi, g'ovakligi, gumus, mikroorganizmlar, organik moddalar miqdori kabilarga qator talablar qo'yiladi. Organik mahsulotlar yetishtirishda suvga qo'yiladigan talablar O'zbekistonda suv sifatini integral baholash uchun suv ifloslanishi indeksidan (SII) foydalaniladi Respublikamizda qabul qilingan tasnifiashga ko'ra, yer usti suv obyektlarni 7 toifaga bo'linadi:

- juda toza (SII-0,3 va undan kam);
- toza (SII-0.31-1,0);
- o'rtacha toza (SII-11-2,5);
- ifloslangan (SII-2,51-4.01);
- notoza (SII-41-6,0%)
- juda notoza (SII-61-10.0);
- haddan tashqari notoza (SII-10,0 dan kop);

Organik o’g’itlar. Organik o'g'itlar - tarkibida o'simlik yoki hayvon organik birikmalari shaklida oziq moddalari bo'lgan o'g'itlar. Organik o'g'itga ga ko'pgina mahalliy o'g'itlar, yashil o'g'it, shahar kommunal xo'jaligi chiqindilari (axlat va ularning kompostlari, oqindi suvlar cho'kindilari, najas), oziq- ovqat, ko'n va boshqa sanoat tarmoqlari chiqindilari hamda sapropel (cho'kma loyqa), poxol va boshqa kiradi. Organik o'g'itlar tuprokda biologik jarayonlarni kuchaytirib, uning fizik va kimyoviy xossalarini yaxshilaydi, oziq moddalar miqdorini oshiradi.

Xulosa. Hozirgi kunda nafaqat qishloq xo'jaligini, balki butun atrof-muhitni yashillashtirish juda muhim hisoblanadi. Biz atrof-muhitni, qishloq xo'jaligini yashillashtirish uchun zararli mahsulotlardan voz kechishimiz, chiqindilarni qisqartirishimi, suv iste'molinining me'yorda bo'lishini ta'minlashimiz kerak. Qishloq xo'jaligining har sohada rivojlanishi jamiyatga ma'lum bir darajada foyda olib keladi.

Qishloq xo'jaligi aholini ish bilan ta'minlaydi, ya'ni mamlakatda ish bilan bandlik darajasi o'sadi. Bundan tashqari, o'rmonlashtirish sohasi ham yashillashtirishda juda katta ahamiyatga ega. Chunki daraxtlarning soni oshishi nafaqat atrof-muhitga, balki aholi salomatligiga ham juda katta foyda. Atrof-muhitni saqlab qolish uchun ham daraxtlar kesilishining oldini olish zarur. Chunki o'rmonlar havoni tozalash xususiyatiga ega. O'rmon yerlarida tuproqning rivojlanishi ham ancha yaxshi, o'rmonsiz yerlarda esa buning aksi, yan'ni tuproqlar qurib, cho'lga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Vahobov Abdurahim Vasikovich, Xajibakiev SHuhrat Xo'jayorivich. "Yashul iqtisodiyot"."Zebo print" Toshkent-2021. 114-124-betlar.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6024-sonli "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.10.06.2020
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-144-sonli Qarori.01.03.2022.
- 4.https://t.me/Javlonbek_Abdusattorov.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF 158-sonli "O'zbekiston -2030" strategiyasi.
- 7.O'rmom va o'rmon xo'jaligi:Universitet talabalari uchun darslik.-M.:Izdatelskiy markazi."Akademiya", 2005-yil,256 bet.